ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN

## LANGUAGE & CULTURE

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

# O‘ZBEKISTON:

## TIL VA MADANIYAT

## Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Shuhrat Sirojiddinov

**Bosh muharrir o‘rinbosari:** **Nozliya Normurodova**
**Samixon Ashirboyev**
**Abdumurod Tilavov**

**Mas’ul kotib:** Anvarbek Turdialiyev

## Tahrir kengashi

Mominova Bag‘dan (Ostona), Mingboyev Nurlon (Chimkent), Ercan Alkaya (Turkiya), Turdimov Shomirza (O‘zRFA), Jo‘raqoziyev Nodirjon (VM), Alniyazov Ayitmurat (Nukus), Xolmanova Zulxumor (ToshDO‘TAU), Ibrohimov Yo‘ldosh (Nukus), Saidqulov Ilhom (ToshDO‘TAU), Murodova Nigora (Navoiy), Jabborov Xo‘jamurod (Qarshi), Darvishev Ibrohim (Namangan), Aliqulova Hulkar (ToshDO‘TAU), Xidraliyeva Zoxira (ToshDO‘TAU), Norboyeva Shukurjon (Urganch), Rahmonov Navro‘z (Navoiy), Ibragimova Zamira (Nukus), Hakimova Muhayyo ToshDO‘TAU), Umurzoqova Marhabo (ToshDO‘TAU), Ubaydullayev Alisher (O‘zMU), Alimardanov Elyor (ToshDO‘TAU), Egamqulov Kamoliddin (ToshDO‘TAU), Qodirov Umarjon (ToshDO‘TAU), Sayfullayev Baurjon (O‘zMPU).

“O‘zbekiston: til va madaniyat jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi № 308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. “O‘zbekiston: til va madaniyat jurnalining “Folklorshunoslik. Shevashunoslik” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, o‘zbek folklorining dolzarb masalalari, o‘zbek dostonchiligi, jahon folklori, folklor janrlari, turkiy xalqlar folklori, folklor va yozma adabiyot, adabiyotimizdagi folklor motivlari, o‘zbek shevalarining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari, tarixiy dialektologiya, shevalarning sotsiolingvistik talqini, areal lingvistika, folklor dialektologiyasi, adabiy til va sheva munosabatlari, sheva ma’lumotlarini o‘zbek tili korpusiga teglash, dialektologiyaning nazariy asoslari, jahon dialektologiyasidagi ilg‘or g‘oyalarga oid tadqiqot natijalari nashr qilinadi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

**Email:** uzlangcult@gmail.com

**Website:** www.uzlc.navoiy-un.uz

**MUNDARIJA**

## Shevashunoslik

**Marifatxon Anarbayeva**
Turk-Barlos urug‘i nutqida saqlanib qolgan qadimiy turkiy lahja elementlari (Marhamat tumani misolida) ..... 6

**Adolat Bekturdiyeva**
O‘g‘uz lahjasidagi so‘z birikmalari va yondosh til birliklari ..... 13

**Muattarxon Turdixo‘jayeva**
O‘zbek tili milliy lingvistik atlasini yaratish tamoyillari ..... 22

**Feruza Aminova**
Matnazar Abdulhakim she’riyatida morfologik dialektizmlarning aks ettirilishi ..... 29

**Durdona Ermatova**
The historical development and modern aspects of evidentiality in uzbek language ..... 36

**Nazirov Salimbek**
Ingliz va o‘zbek tillaridagi ertaklarda uchraydigan barqaror birikmalarni muqobillashtirish masalalari ..... 48

**Dilnavoz Asatullayeva**
Umumta’lim maktablarida morfonologiyani o‘qitish metodikasi (yozma va og‘zaki nutq misollari asosida) ..... 55

**Dilso‘z Rahmonova**
Samarqand qipchoq shevalarining areallari ..... 62

**Islom Bo‘riyev**
Iboralar komponentlari tahlili: O‘TIL (6 jildli; 2022) materiallari asosida ..... 70

**Gavhar Toshtemirova**
“Gulnor pari” dostonining fonetik -leksik xususiyatlari ..... 80

**Rustam Esanov**
Xalq ertaklarida qo‘laniladigan ramzlarning lingvistik xususiyatlari . 88

**Botir Raxmonov**
Til va madaniyat munosabati, etnodialektal birliklarning lingvomadaniy talqini ..... 97

**Hayotxon Salayeva**
Gurlan leksikasidagi ayrim so‘zlarning “Devonu lug‘otit turk” asari bilan qiyosi ..... 105

**Sadoqat Rajabova**
Ishtixon shevasining o‘z va o‘zlashma qatlam leksikasi .....116

**Shahlo Ahmadjonova**
Namangan qarluq shevalarining fonetik xususiyatlari va areal lingvistik o‘ziga xosliklari ..... 129

**Shirinoy Shuhratova**
O‘zbek shevalarida kulolchilik terminlarining o‘rganilishi ..... 138

ISSN 2181-922X 22 — 28

# O‘ZBEK TILI MILLIY LINGVISTIK ATLASINI YARATISH TAMOYILLARI

**Muattarxon Turdixo‘jayeva**[1]

**Abstrakt**

Ushbu maqolada tilshunoslikning yangi yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan lingvistik geografiya, areal lingvistika kabi fanlar asosida o‘zbek tilshunosligi oldidagi muhim masalalardan biri bo‘lgan o‘zbek tili milliy lingvistik atlasini yaratish masalasi va ish davomida yuzaga keluvchi ayrim muammolar haqida fikrlar bildirilgan. Toshkent viloyatining janubiy tumanlari o‘zbek shevalarining lingvistik atlaslarini yaratish uchun bir qator tamoyillarga asoslanish mumkin. Toshkent viloyati ko‘p millatli viloyat sanalganligi uchun ham shevalarning rang-barangligini, biri ikkinchisini takrorlamasligini ko‘rish mumkin. Toshkent viloyati 18 ta tuman va shahardan iborat. Bekobod, Bo‘ka, Ohangaron, Chinoz, Piskent, Oqqo‘rg‘on, Quyi Chirchiq tumanlari viloyatning janubiy qismida joylashgan. Mazkur tuman shevalari fonetik, leksik, morfologik, semantik tadqiq qilinib, to‘plangan materiallar asosida kichik areallarni o‘z ichiga olgan xususiy lingvistik atlaslar yaratilmoqda. Bu kabi ishlar har bir viloyat shevalari asosida amalga oshirilsa, o‘zbek tilshunosligida ham katta o‘zgarish bo‘lishi haqida fikr yuritilgan. Ayrim taklif va mulohazalar orqali ba’zi muammolarga yechim topishga harakat qilindi.

**Kalit so‘zlar:** lingvistik geografiya, areal lingvistika, lingvistik atlas, xaritalashtirish, hududiy jihatdan o‘rganish tamoyili.

Jahon tilshunosligida dialektlarni o‘rganishga bo‘lgan e’tibor yanada oshmoqda. Ayniqsa, dialektal tizimni kartografiya metodida o‘rganish ishi rivojlanmoqda. Bu borada o‘zbek tilshunosligida ham muayyan ishlar amalga oshirilgan. Deyarli barcha dialektologik tadqiqotlarda shevalar kartasi ilova qilinmoqda, balki lingvistik geografiya asosida ham tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Ma’lumki, dunyo tilshunosligida hozirgi kunga kelib lingvistik geografiya areal tilshunoslikning tarkibiy qismiga aylandi va uning bir metodi sifatida ham shakllanib ulgurdi. O‘zbek tilshunosligida areal lingvistik qarashlar o‘tgan asrning 20-yillaridayoq yuzaga kelgan va rivojlanib kelganligi fanda ma’lum. O‘zbek shevalarini kartalashtirish

[1]*Muattarxon Turdixo‘jayeva* -Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti
**E-mail:**mturdixojayeva@gmail.com
**ORCID ID:** https://orcid./org/0009-0001-7679-4025
**Iqtibos uchun:** *Turdixo‘jayeva M.* 2025. "*O‘zbek tili milliy lingvistik atlasini yaratish tamoyillari".* O‘zbekiston. til va madaniyat. Folklorshunoslik. Shevashunoslik. 2: 22-28. Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/FNNX5785

asosida o‘rganish ishi Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi o‘zbek shevalari, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Janubiy Qozog‘iston o‘zbek shevalari bo‘yicha olib borilgan, lekin bunday ishlar barmoq bilan sanalarlidir. Bir kichik areal bo‘yicha ham tadqiqotlar olib borilgan. Shuni ta’kidlash lozimki, shevalarni, xususan, o‘zbek shevalarini lingvistik geografiya asosida o‘rganish ham yirik, ham kichik areallarda olib borish mumkin.

Areal lingvistikaning asosiy tushunchalaridan biri lingvistik xaritalar va lingvistik atlaslardir. Til jamiyat bilan birga rivojlanib borar ekan, har qanday millat o‘z tilining boy tarixini, qadimgi ko‘rinishini yo‘qotishni xohlamaydi. Bunday boy ma’naviy merosni avlodlarga qoldirmoqni istaydi. Shu sababli, til hodisalari, dialektal hodisalarni tadqiq qilish, ularni xaritalashtirib, lingvistik atlaslar tuzish jahon tilshunoslarining diqqat markazida bo‘lgan [Nasriyeva 2021;22]. Til materiallarini xaritalashtirish XIX asrning 40-50-yillarida Yevropa tilshunoslari tomonidan qo‘llanila boshlangan. Keyinchalik umumiy va xususiy linvistik atlaslar farqlangan. Ya’ni tilning faqat bir sathiga oid materiallar yig‘ilgan atlaslar xususiy bo‘lsa, aynan shu tilning barcha sathlariga oid materiallar yig‘ilib umumlashtirilgan xarita umumiy lingvistik xarita deb yuritila boshlangan.

XIX asrning o‘rtalarida, dialektologik kuzatishlar rivojlangan, dialektologlar, dialektlar va ularning xususiyatlari to‘g‘risida yetarli faktik materiallar to‘plangan joylarda tilshunoslikda Lingvistik geografiya nomli yangi bir soha paydo bo‘ldi. Tilshunoslikdagi bu yangi yo‘nalishning rivojida, dialektologik fikrning keyingi taraqqiyotiga juda katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu borada Yevropa tilshunoslarining o‘rnini alohida ta’kidlash lozim. Fransiyada Jan Jilyeron, Germaniyada Georg Venker, F.Vrede, P.Meyyerlar, Russiyada I.I.Sreznevskiy kabilar Lingvistik geografiya fanining tom ma’nodagi asoschilari bo‘ldi. Russiyada lingvistik geografiyaning paydo bo‘lishi va rivoji I.I.Sreznevskiyning nomi bilan bog‘liq. I.I.Sreznevskiy o‘tgan asrning 50-yillaridayoq bu sohani o‘rganish va rivojlantirish masalasini qo‘ydi va bu yangi sohaning o‘rni va vazifalarini belgilovchi asarlar yaratdi. O‘zbekistonda esa lingvo-geografik metod bilan shevalarni o‘rganish 1940-yillarda boshlandi va bu sohada ishlar davom etmoqda.

Dialektologik atlaslarning dastlabki namunalari XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida yaratilgan. Yevropada tuzilgan eng muhim dialektologik atlas quyidagilar: Venker va Vredelarning «Nemis tili atlasi» (1876- 1926 yillar mobaynida yaratilgan); Marburgdagi nemis dialektologiyasi markaziy instituti nashr etgan «Nemis leksikologik atlasi»; Jilyeron va Edmonning 12 jildli «Fransuz tili atlasi» (1902-1912 yillar mobaynida yaratilgan); Yaberg va Yudning 8 jildli «Italyan-shveytsar atlasi» (1928-1940) sobiq SSSRda tuzilgan eng muhim dialektologik atlaslar «Moskva sharqidagi markaziy oblastlar rus xalqi shevalari atlasi» (1957); «Shimoli – g‘arbiy oblastlar rus xalq shevalari atlasi» va respublikalarda nashr etilgan «Ukrain tili xalq shevalari atlasi», «Belarus tili xalq shevalari atlasi va boshqalar».

O‘zbek tilshunosligining hali yosh sohalaridan biri o‘zbek dialektologiyasi o‘zining boshlang‘ich davri – dialektografiya bosqichini o‘tab, endi u to‘plangan boy material – baza asosida ho-

zirgi zamon dialektologiyasining nazariy masalalarini ishlash, shu bilan birga lingvistik geografiya masalalari bilan shug‘ullangan bosqichiga o‘tdi. O‘zbek shevalarini lingvistik geografiya metodi bilan o‘rganish ishi 1944-yilda boshlangan edi. Shundan so‘ng professorlar A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, M.Mirzayev, A.Aliyev, A.G‘ulomov, K.Nazarov, F.A.Abdullayev, A.SHermatovlarning olib borgan tadqiqotlari va amalga oshirgan ishlari salmoqli bo‘ldi. XIX asrda fransuz dialektologi Jan Jilyeron butun fransiyani velosipedda aylanib chiqib, fransuz tilining dialektal atlasini yaratgan bo‘lsa, O‘zbekistonda ham dialektologik atlas yaratish ishi ancha rivojlangan. Bu sohada Sh.Shoabdurahmonov, K.Muhammadjonov, A.Jo‘rayev, A.SHermatov, Y.Ibrohimovlarning tadqiqotlari mavjud. Akademik Sh.Shoabdurahmonov O‘zbekistonda birinchi bo‘lib shevalar atlasini yaratishning nazariy qoidalarini ishlab chiqdi. Professorlar K.Muhammadjonov shimoliy o‘zbek shevalarini, A.Shermatov quyi Qashqadaryo shevalarini, dotsent Y.Ibrohimov esa Orol bo‘yi o‘zbek shevalarini kartalashtirgan. Ayniqsa, o‘zbek shevalarini lingvo-geografik metod asosida ilmiy tadqiq qilishda A.Shermatov samarali hissa qo‘shdi. U “Qashqadaryo guruh shevalari kartasi”ni tuzib chiqdi. Bu tadqiqot 167 karta bilan o‘z yakunini topdi. Yuqorida keltirilgan ishlarning salmog‘i anchagina keng bo‘lishiga qaramasdan hali O‘zbek tilining milliy lingvistik atlasini yaratish masalasini asosiy planda mukammal amalga oshirish ishlari yo‘lga qo‘yilmagan.

Mazkur maqolaning asosiy mazmuni ham aynan o‘zbek tili va shevalarini areal nuqtai nazardan o‘rganish va to‘plangan materiallarni kartalarga tushirish ishlarini tezroq yakunlash, bu orqali yaxlit O‘zbek tilining milliy lingvistik atlasini yaratish ishini tugallash masalasini ilgari surishdir. Yaratilajak atlasni esa faqatgina to‘plam ko‘rinishida qog‘ozga chop etish emas, uning ilovasini yaratib, bu dasturdan tilshunoslar va tilga qiziquvchi barcha, hamda keng jamoatchilik foydalana olishini ta’minlash maqsadida internet tarmog‘iga joylash har tomonlama maqsadga muvofiq bo‘ladi. Natijada esa O‘zbekiston hududiga tashrif buyuruvchi va tashrif oldidan xalqimiz tili va madaniyatini o‘rganmoqchi bo‘lgan xorijliklar, shuningdek ko‘p millatli O‘zbekiston xalqining ham ma’lum bir hududdan o‘zgasiga ko‘chishi yoki vaqtinchalik tashrifi oldidan tanlangan manzil hamda unda yashovchi aholining tilidagi o‘ziga xosliklar bilan tanishib, oz bo‘lsa-da tushunchaga ega bo‘lib borishlari uchun muhim manbaga ega bo‘lishadi. Dastur foydalanish uchun har jihatdan qulay va hamma uchun manfaatli bo‘ladi.

Xaritalash usulini ishlab chiqish dialektologiyadan – areal lingvistika (lingvistik geografiya) til hodisalarining hududiy tarqalishini o‘rganadigan fanning maxsus bo‘limi paydo bo‘lishiga olib keldi.

Toshkent viloyatining janubiy tumanlari o‘zbek shevalarining lingvistik atlaslarini yaratish uchun avvalroq sanab o‘tilgan tamoyillarga asoslanish mumkin. Toshkent viloyati ko‘p millatli viloyat sanalganligi uchun ham shevalarning rang-barangligini, biri ikkinchisini takrorlamasligini ko‘rish mumkin. Toshkent viloyati 18 ta tuman va shahardan iborat. Bekobod, Bo‘ka, Ohangaron, Chinoz, Piskent, Oqqo‘rg‘on, Quyi Chirchiq tumanlari viloyatning janubiy qismida joy-

lashgan. Mazkur tuman shevalari fonetik, leksik, morfologik, semantik tadqiq qilinib, to‘plangan materiallar asosida kichik areallarni o‘z ichiga olgan xususiy lingvistik atlaslar yaratilmoqda. Bu kabi ishlar har bir viloyat shevalari asosida amalga oshirilsa, o‘zbek tilshunosligida ham katta o‘zgarish bo‘lishi kutilmoqda. O‘zbek shevalari asosida yaratilgan lingvistik atlaslar birlashtirilib, o‘zbek tilining leksik atlasi vujudga keladi.

Bir darajadagi hodisalarning lingvistik atlasini yaratish uchun bir qator tamoyillarga tayanilsa, yaratilayotgan lingvistik atlasning mukammal bo‘lishiga zamin yaratiladi. Atlaslarni quyidagi tamoyillar asosida tuzish tavsiya etiladi:

Tizimlilik tamoyili -bunda har bir sheva ma’lum bir ketma-ketlik, izchillik asosidagi faktlarga tayangan holda xaritada o‘z aksini topadi. Tilshunoslikda fonetika, leksikologiya, semantika, morfologiya, sintaksis va boshqa bo‘limlar sistemali tarzda o‘rganiladi. Xaritada ham aynan shu asosda aks etadi. Ya’ni Toshkent viloyati janubiy tumanlarining fonetikasi, leksikologiyasi, semantikasi, morfologiyasi va sintaksisi tadqiq etilib, xaritaga tizimlilik asosida joylashtiriladi.

Umumlingvistik yoki areal tamoyil shevalarning hududiy tarqalishi bilan bog‘liq bo‘lib, birgina Toshkent viloyatining o‘zida mavjud bo‘lgan bir necha lahjalarning hududiy tarqalish chegaralarini aniqlashda yordam beradi. Shevaning xarakterli xususiyatlari aynan uning tarqalish hududi bilan bog‘liqlik asosida o‘rganiladi.

Nazariyaning amaliyotga bog‘liqligi tamoyilida Toshkent viloyatining o‘zbek shevalari nazariy jihatdan tadqiq etilgan ishlar ro‘yxati shakllantiriladi. Mutaxassislar tomonidan ilmiy asoslangan materiallar to‘planib, xarita yaratishda asos qilib olinadi.

So‘rov o‘tkaziladigan nuqtalarni aniqlash tamoyili -bunda tuman yoki shahar markazidan uning chekka hududlarigacha bir nechta nuqtalar aniqlanadi. Markazda aholi gavjum, zich joylashgan bo‘lsa, chekka hududlarida aksincha, aholi nisbatan siyrak tarqalgan bo‘ladi. Asosan, asl shevalar chekka hududlarda tabiiy saqlangan bo‘ladi.

Til hodisalarini o‘rganish tamoyili -til hodisalarni o‘rganishda ham diaxron ham sinxron metodga asoslanish mumkin. [1]

Axborotchilarni tanlash tamoyili. Bu tamoyil ham lingvistik atlas yaratishdagi eng muhim tamoyillardan biri hisoblanadi. Axborotchilarni tanlashda uning kelib chiqishi, millati, yashash tarzi, yoshi va jinsiga ham alohida ahamiyat berish talab etiladi. To‘g‘ri tanlangan axborotchi ta’bir joiz bo‘lsa, beqiyos xazinadek gap.

Axborotchilardan qanday qilib so‘rov o‘tkazish kerakligini aniqlash tamoyili. Mazkur tamoyil tadqiqotchidan ziyraklik va zukkolik talab etadi. So‘rovni to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki anketa savollari orqali o‘tkazish mumkin. Bizning fikrimizcha, sheva materiallarini yig‘ishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ya’ni bevosita axborotchining o‘zi bilan jonli suhbat o‘tkazib, diktofonga yozib olingan materiallarning afzalligi yuqoriroq.

So‘rov uchun lug‘at va so‘roqlik tuzish tamoyili. Til hodisalari xususiyatiga ko‘ra oldindan tavsiflab tuziladi.

Izogloss usulini aniqlash tamoyili. Muayyab hodisaning

[1] https://studfile.net/preview/7643667/ Ареальная лингвистика.

tarqalishi aniqligi farq qilmagan hollarda qo'llanadi. Izofon, izoleks va izomorf, izosema farqlanadi [Nasriyeva 2021;50].

Materialning fonetik transkripsiyasini berish tamoyili. Bunday ro'yxatga olish tizimi o'rganilayotgan faktlarni eng to'liq shaklda aks ettiradi. Fonetik transkripsiya -konkret nutq tovushlarini ifodalaydigan ishoralar tizimi. Fonematik transkripsiya -tildagi fonemalr talaffuzini belgilab beruvchi yozuv tizimi. Ma'lumotlarni xaritalashtirish dasturida rejada ko'rib chiqilgan va barcha tadqiqotchilar tomonidan ma'qullangan yagona unli va undosh tovushlar milliy transkripsiyasi (lotincha "qayta yozish")da yozma barqarorlashtirish [Nasriyeva 2021;50].

Tegishli hududlarni ajratish qiyin bo'lishi mumkin bo'lgan joylarda materiallarni yig'ish usulini ishlab chiqish tamoyili.

To'plangn materialni pasportlashtirish muammosini hal etish tamoyili. Mazkur tamoyilga ko'ra, til materiallarining tizimli tavsifi va tasnifi beriladi, statistikasi aniqlanadi.

Lingvistik xaritalarni alohida atlaslarga ajratish tamoyillari. Bunda o'rganilayotgan til hodisalarini ifodalash uchun ishlab chiqilgan shartli belgilar tizimiga mos hodisalar ajratib chiqiladi, guruhlashtiriladi.

Dialektologik tamoyil. Ushbu tamoyilga ko'ra savollarga berilgan javoblar anketasidagi o'zbek tilining qipchoq, qarluq, o'g'uz lahjalariga xos belgili kartochkalar tasnif qilinadi va tayyor materiallar tayanch nuqtalarda belgilanadi. Samixon Ashirboyevning "O'zbek dialektologiyasi" kitobida o'zbek tili lahjalarining Markaziy Osiyo hududida tarqalishi xaritada (9-rasm) berilgan [Ashirboyev 2016;71].

Kartografik xaritalash tamoyili, o'z navbatida ikkiga bo'linadi: 1. xaritadi hodisalarni (sifatli) joylashtirish va truli usullar bilan qayd etilgan hodisaning miqdoriy tavsifini belgilash. 2. Xarita miqyosida ko'rsatish qiyin bo'lgan hodislar mavjud (ular mahalliy hududlarda keng tarqalgan). agar lozim bo'lsa, ular piktogramma va mahalliylashtirilgan diagrammalar yordamida tasvirlanishi kerak.

Innovatsion markazni aniqlash[Ashirboyev 2016;71] yoki tarixiy tamoyil [Nasriyeva 2021;51]. Muayyan til hodisalarining hududlararo vaqt o'qida uzluksiz munosabatda bo'lgan o'tgan va hozirgi zamondagi holatlari bir butunligini yoki til tarixiga murojaat qilib, izoglossalarning tarqalish nuqtasini aniqlashni ifodalaydi.

Sanab o'tilgan tamoyillarning barchasi lingvistik atlas tuzishda birday ahamiyat kasb etadi. Har bir tamoyil asosida izchillikda amalga oshirilgan ishlarning natijasida tilshunoslik uchun juda muhim sanalgan muammolardan biri o'z yechimini topadi. Turli darajadagi lingvistik atlaslarning boshqa bir tamoyillari ham mavjud bo'lib, ular haqida keyingi maqolalarimizda to'xtalib o'tamiz.

## Adabiyotlar

Аванесов Р.И. (1952). Лингвистическая география и история руссого языка, Вопросы языкознания. – № 6.

Ashirboyev S., (2000). O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent / ma'ruza matni.

Ashirboyev S. (2016). O'zbek dialektologiyasi. – T.: Navro'z.

Doniyorov X. (1997). Qipchoq dialektlarining leksikasi, – Toshkent, Fan.
Murodova N. (2007). O‘zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvo-areal talqini. – Toshkent, Fan.
Nasriyeva D. Areal lingvistika: lingvistik xarita va ingvistik atlaslar. – T.: Adast poligraf, 2021. B-50
Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. (1978). O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, O‘qituvchi.
Rajabov N. (1996). O‘zbek shevashunosligi. – Toshkent, O‘qituvchi.
Shermatov A. (1981). Lingvistik geografiya nima, – Toshkent.
https://studfile.net/preview/7643667/ Ареальная лингвистика

# PRINCIPLES OF CREATING A NATIONAL LINGUISTIC ATLAS OF THE UZBEKI LANGUAGE

**Turdikhojayeva Muattarkhan**[1]

**Abstract**

This article presents the issue of creating a national linguistic atlas of the Uzbek language, one of the important issues facing Uzbek linguistics, based on new areas of linguistics such as linguistic geography and areal linguistics, and some of the problems that arise during the work. A number of principles can be used to create linguistic atlases of Uzbek dialects in the southern districts of Tashkent region. Since Tashkent region is considered a multinational region, it is possible to see the diversity of dialects and the fact that one does not repeat the other. Tashkent region consists of 18 districts and cities. Bekabad, Boka, Ahangaran, Chinoz, Piskent, Aqqurgon, and Kuyi Chirchik districts are located in the southern part of the region. The dialects of these districts are being studied phonetically, lexically, morphologically, and semantically, and special linguistic atlases are being created based on the collected materials, including small areals. It was thought that if such work were carried out on the basis of each regional dialect, there would be a major change in Uzbek linguistics. An attempt was made to find solutions to some problems through some suggestions and comments.

**Key words**: linguistic geography, areal linguistics, linguistic

[1]*Muattarxon Turdixojaeva*– PhD student of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

**E-mail:** mturdixojayeva@gmail.com

**ORCID ID:** https://orcid./org/0009-0001-7679-4025

**For citation:** *Turdixo‘jayeva M.* 2025. *Principles of creating a national linguistic atlas of the uzbeki language.* Uzbekistan. Language and Culture. Folklore. Dialectology. 2: 22-28. Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/FNNX5785

atlas, mapping, principle of territorial study.

## References

ванесов Р.И. (1952). Лингвистическая география и история руссого языка, Вопросы языкознания. – № 6.
Ashirboyev S., (2000). O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent / ma'ruza matni.
Ashirboyev S. (2016). O'zbek dialektologiyasi. – T.: Navro'z.
Doniyorov X. (1997). Qipchoq dialektlarining leksikasi, – Toshkent, Fan.
Murodova N. (2007). O'zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvo-areal talqini. – Toshkent, Fan.
Nasriyeva D. Areal lingvistika: lingvistik xarita va ingvistik atlaslar. – T.: Adast poligraf, 2021. B-50
Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. (1978). O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, O'qituvchi.
Rajabov N. (1996). O'zbek shevashunosligi. – Toshkent, O'qituvchi.
Shermatov A. (1981). Lingvistik geografiya nima, – Toshkent.
https://studfile.net/preview/7643667/ Ареальная лингвистика.

Jurnal 2017-yil 26-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. No 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy. Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

E-mail: uzlangcult@gmail.com